



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xushmuradov Oman

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ И АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА

Хушмурадов Оман

CURRENT CHALLENGES IN THE DEVELOPMENT OF DIGITALIZATION AND AUTOMATION SYSTEMS IN ACCOUNTING

Xushmuradov Oman

Received: June 9, 2026 Revised: June 16, 2026 Accepted: June 19, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: mazkur maqolada buxgalteriya hisobida avtomatlashtirish tizimlari va raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish jarayonlarini mutaxassislarini qisqartirish vositasi sifatida emas, balki buxgalterlarning kundalik takrorlanuvchi amaliy operatsiyalarini avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va professional faoliyat samaradorligini oshirish omili sifatida baholashdan iborat. Maqolada raqamli buxgalteriya tushunchasi, uning zamonaviy axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi hamda buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, texnologik va uslubiy muammolar o'rganilib, ularni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, transformatsiya, axborot tizimlari, elektron hujjat, dasturiy ta'minot, bank operatsiyalari, hisob tizimi.

Аннотация: в данной статье исследованы теоретические и практические аспекты применения систем автоматизации и цифровых технологий в бухгалтерском учёте. Основной целью исследования является рассмотрение процессов цифровизации бухгалтерского учёта не как средства сокращения численности специалистов, а как инструмента автоматизации повседневных повторяющихся операций бухгалтеров, улучшения условий труда и повышения эффективности их профессиональной деятельности. В статье проанализированы сущность цифрового бухгалтерского учёта, особенности его интеграции с современными информационными системами, а также его специфические характеристики, расширяющие возможности использования бухгалтерской информации. Кроме того, изучены организационные, технологические и методические проблемы, возникающие в процессе автоматизации бухгалтерского учёта на предприятиях, и определены основные направления их решения.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, автоматизация, цифровые технологии, цифровая трансформация, информационные системы, электронный документооборот, программное обеспечение, банковские операции, учётная система.

Abstract: this article examines the theoretical and practical aspects of applying automation systems and digital technologies in accounting. The main objective of the study is to evaluate the digitalization of accounting not as a tool for reducing the number of accounting personnel, but as a means of automating routine and repetitive accounting operations, improving working conditions, and enhancing the efficiency of professional activities. The paper analyzes the concept of digital accounting, its integration with modern information systems, and its distinctive features that expand the possibilities for the use of accounting information. In addition, the study investigates the organizational, technological, and methodological challenges arising during the automation of accounting processes in enterprises and identifies the key directions for addressing these challenges.



Keywords: accounting, financial reporting, automation, digital technologies, digital transformation, information systems, electronic document management, software, banking operations, accounting system.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barcha yo'nalishlariga, jumladan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida moliyaviy axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa buxgalteriya hisobini yuritish usullarini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, elektron hujjat aylanishi tizimlari va korporativ axborot tizimlarining amaliyotga keng joriy etilishi moliyaviy ma'lumotlar bilan ishlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Natijada moliyaviy axborotlarni qayta ishlash tezligi ortib, inson omili bilan bog'liq xatoliklar kamaymoqda hamda hisobotlarning ishonchliligi va aniqligi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, "raqamli texnologiyalarga yuqori darajada bog'liqlik yangi xavf va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, axborot tizimlaridagi texnik nosozliklar, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlarni boshqarishdagi kamchiliklar hamda avtomatlashtirilgan hisobotlarni shakllantirish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi asosiy muammolar sifatida qayd etilmoqda" [1].

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etish, elektron hujjat aylanishi tizimlarini kengaytirish, raqamli xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda korxonalarda avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini qo'llash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizda "Yagona buxgalteriya hisobini yuritish" axborot tizimini joriy etish, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish uchun ma'lumotlar tizimi va ma'lumotlar bazasi axborot tizimini yangilash, "Resurslarni boshqarish tizimi" (ERP) orqali buxgalteriya, moliyaviy hisobot va ma'lumotlar konsolidatsiyasining axborot tizimini joriy etish, buxgalteriya, moliyaviy hisobot va ma'lumotlar konsolidatsiyasining avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilish yo'nalishlari belgilab berildi [2].

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari qator muammolar bilan ham tavsiflanadi. Jumladan, dasturiy ta'minotni tanlash va yangilab borish zarurati, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi hamda mavjud ma'lumotlarni yangi tizimlarga integratsiya qilish bilan bog'liq muammolar ushbu sohaning dolzarb masalalari hisoblanadi. Mazkur muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir guruh xorijiy davlatlar olimlariga fikriga ko'ra, hozirgi kunda dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari buxgalteriya hisobining raqamli funksiyalarini integratsiyalash va avtomatlashtirishga qaratilgan yechimlarni yaratish ustida faol ish olib bormoqdalar. Mazkur jarayon uzoq muddatli bo'lib, sezilarli moliyaviy investitsiyalarni talab etadi. Shu bilan birga, korporativ resurslarni boshqarish tizimlari (ERP)ni modernizatsiya qilish orqali ishlab chiquvchilar soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni minimallashtirish, biznes jarayonlarini standartlashtirish hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirishga intilmoqdalar [3].

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamlashtirish masalalari mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Xususan, S.Q. Mahmudov va R.Sh. Yo'ldoshevlarining "Banklarda buxgalteriya hisobi" nomli o'quv qo'llanmasida bank faoliyatida elektron hujjat aylanishi, "Bank-mijoz" tizimi orqali shakllantiriladigan elektron to'lov hujjatlari hamda bank kartalari asosida tuziladigan elektron hujjatlarni qayta ishlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari yoritilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, zamonaviy bank amaliyotida elektron hujjatlar asosida amalga oshiriladigan operatsiyalarni hisobga olish moliyaviy axborotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va bank xizmatlari sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [4].

Tadqiqotchi A.L. Rahimov o'z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan. Muallif tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida qo'l mehnatini qisqartirish, axborotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, hisob ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan [5].

Buxgalteriya hisobi texnologik taraqqiyot bilan uzviy ravishda rivojlanib kelayotgan bo'lsa-da, avtomatlashtirish tizimlari, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining jadal rivojlanishi hisob tizimlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda. Natijada moliyaviy axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash va ulardan foydalanish



mexanizmlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda [6].


O'rganilgan ilmiy manbalar va mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobini to'liq avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda bir xil darajada joriy etilmagan. Amaliyotda ayrim korxonalarda hisob ishlarini qo'lda yuritish yoki eskirgan dasturiy vositalardan foydalanish holatlari saqlanib qolmoqda. Bu esa moliyaviy axborotlarni qayta ishlash samaradorligini pasaytirish, mehnat unumdorligini cheklash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborot sifati bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlarini takomillashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda buxgalterlarning takrorlanuvchi operatsiyalarini avtomatlashtirish orqali hisob jarayonlarining samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini buxgalteriya hisobi, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohasidagi nazariy konsepsiyalar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tajribalar hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash, kuzatish va modellashtirish, usullaridan foydalanildi. Shuningdek, an'anaviy buxgalteriya hisobi jarayonlari bilan avtomatlashtirilgan hisob tizimlari o'rtasidagi farqlar tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarning mehnat unumdorligi, axborotlarni qayta ishlash tezligi va moliyaviy ma'lumotlarning ishonchililigi ta'siri baholandi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining murakkablashuvi va biznes jarayonlarining kengayishi buxgalteriya hisobi tizimiga qo'yilayotgan talablarni sezilarli darajada oshirmoqda.



1-rasm. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimini rivojlantirishning konseptual modeli³²

³² Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Amaliyotda buxgalteriya xizmatlari tomonidan bajariladigan ko'plab operatsiyalar takrorlanuvchi va katta hajmdagi mehnat talab qiluvchi jarayonlardan iborat bo'lib, ularni an'anaviy usullar asosida yuritish vaqt sarfi, mehnat unumdorligi va axborotlarni qayta ishlash sifati bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi jarayonlarini optimallashtirish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy axborotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayrim hollarda hisob ishlarining hajmi ortishi natijasida korxonalar qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish yoki outsorsing xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi tizimlari, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish vositalari hamda tashqi institutsional omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va kutilayotgan natijalarini biz 1-rasmda aks ettirdik.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish – bu tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni qayd etish, qayta ishlash, umumlashtirish va hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish tizimidir. Avtomatlashtirilgan hisob tizimlari kundalik takrorlanuvchi operatsiyalarni bajarishda buxgalterlarga yordam berib, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda hisob ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonida moliyaviy operatsiyalarni qayd etish, ish haqi hisoblash, soliq majburiyatlarini aniqlash, kasallik varaqalari bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish, moliyaviy va statistik hisobotlarni shakllantirish kabi vazifalar maxsus dasturiy ta'minot vositalari yordamida bajariladi. Shu bilan birga, elektron hujjat aylanishi tizimlari orqali hujjatlar yaratish, saqlash va uzatish jarayonlari ham avtomatlashtiriladi. "Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish sharoitida boshlang'ich hujjatlar rekvizitlari kodlar ko'rinishida qayd etilishi mumkin. Bunda elektron shaklda tuzilgan boshlang'ich hujjat va registr elektron raqamli imzo haqidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq uning to'g'ri tuzilishi uchun javobgar bo'lgan shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi lozim" [7].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar tasvirlarni matnga aylantirish (OCR – Optical character recognition), elektron hujjatlarini avtomatik tanib olish, hisobotlarning to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish hamda ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Natijada buxgalteriya xizmatlari faoliyatining samaradorligi ortib, hujjatlar bilan ishlash jarayonlari soddalashmoqda.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxonalarga mehnat va vaqt xarajatlarini qisqartirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborot bazasini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, depozit operatsiyalari, to'lov topshiriqnomalari, inkasso topshiriqnomalari, budjet tasnifi kodlari va boshqa katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlarning afzalliklari yaqqol namoyon bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muhim boshqaruv instrumentlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda ayrim rahbarlar buxgalteriya hisobining vazifalarini faqat soliqlarni hisoblash va to'lash, xodimlarga ish haqi hisoblash hamda nazorat organlari oldidagi majburiyatlarni bajarish bilan bog'lab talqin qiladilar. Biroq zamonaviy iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi mazmuni va vazifalari ancha keng bo'lib, u korxona faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tizimlashtirish va umumlashtirish, aktivlar va majburiyatlar holatini nazorat qilish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonida qaysi operatsiyalarni birinchi navbatda raqamlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, eng avvalo muntazam takrorlanadigan va katta hajmdagi mehnat talab qiluvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday operatsiyalar qatoriga soliq majburiyatlarini hisoblash, ish haqi va boshqa xarajatlarni aniqlash, moliyaviy va statistik hisobotlarni shakllantirish, hujjatlar aylanishini boshqarish hamda ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonlari kiradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonida uchraydigan muhim muammolardan biri xodimlarning ushbu jarayonga nisbatan salbiy munosabatidir. Ayrim mutaxassislarda avtomatlashtirish natijasida o'z mehnatining ahamiyati pasayishi, ish haqi kamayishi yoki ish o'rinlari qisqarishi mumkinligi haqida xavotir bildiradilar. Biroq xalqaro tajriba va amaliyot natijalari avtomatlashtirishning asosiy maqsadi xodimlarni almashtirish emas, balki ularning mehnat unumdorligini oshirish va takrorlanuvchi operatsiyalarni texnologik vositalar yordamida bajarishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

Amalda avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilishi buxgalterlarning kasbiy kompetensiyalarini kengaytirish, tahliliy faoliyatga ko'proq e'tibor qaratish hamda strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Chunki korxona faoliyatini samarali tashkil etish, xo'jalik operatsiyalarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra to'g'ri aks ettirish, nazorat qilish va moliyaviy natijalarni baholash vazifalari malakali mutaxassislarning bevosita ishtirokini talab qiladi.

Shu sababli zamonaviy sharoitda buxgalterlardan nafaqat buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari va raqamli platformalar bilan ishlash ko'nikmalarini ham egallash talab etiladi. Natijada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxona faoliyati samaradorligini oshirish bilan bir qatorda



mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish jarayonida korxonalar qator tashkiliy, texnik va uslubiy muammolarga duch kelishlari mumkin. Ushbu muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish avtomatlashtirish loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi, ayrim korxonalarda barcha buxgalteriya jarayonlarini to'liq raqamlashtirishga haddan tashqari intilish kuzatiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, har bir operatsiyani avtomatlashtirishga urinish hisob jarayonlarini soddalashtirish o'rniga ularning murakkablashishiga, ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga va boshqaruv tizimining samarasiz ishlashiga olib kelishi mumkin. Shu sababli avtomatlashtirish jarayonida korxonaning real ehtiyojlari va faoliyat xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Ikkinchi, buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligidagi tez-tez yuz beradigan o'zgarishlar amaldagi dasturiy ta'minotning yangi talablar bilan mos kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat avtomatlashtirilgan tizimlarni muntazam ravishda yangilab borish hamda moslashuvchan dasturiy platformalarni tanlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Uchinchi, xodimlarning yangi axborot tizimlari bilan ishlash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi avtomatlashtirish jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yangi dasturiy mahsulotlarni joriy etish bilan bir qatorda xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish va ularga zarur metodik yordam ko'rsatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

To'rtinchi, avvalgi davrga oid ma'lumotlarni yangi axborot tizimlariga noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan holda ko'chirish ma'lumotlar bazasida xatolar yuzaga kelishiga, hisob ma'lumotlarining buzilishiga va qo'shimcha mehnat xarajatlarning ortishiga olib keladi. Shu bois ma'lumotlarni migratsiya qilish jarayoniga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Beshinchi, avtomatlashtirish tizimlarini faqat rasmiy ravishda joriy etish, ya'ni hujjatlarni qog'oz shaklida yuritishni davom ettirib, elektron tizimlardan faqat qo'shimcha vosita sifatida foydalanish kutilgan natijalarni bermaydi. Bunday holatda avtomatlashtirishning iqtisodiy va tashkiliy samarasi sezilarli darajada pasayadi.

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning qaysi korxonalar uchun zarurligi masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda samarali buxgalteriya hisobi har qanday tashkilot yoki korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisob tizimlaridan samarali foydalanish korxonalarga mehnat unumdorligini oshirish, moliyaviy axborotlarni qayta ishlash tezligini kuchaytirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Natijada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish nafaqat hisob jarayonlarini takomillashtirish, balki korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot talablariga mos faoliyat yuritishini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda hatto kichik biznes subyektlari ham elektron jadvallar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan o'z faoliyatini samarali tashkil eta olmaydi. Shu sababli xo'jalik operatsiyalarini raqamli shaklda qayd etish va qayta ishlash zamonaviy boshqaruvning ajralmas elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri moliyaviy axborotlardan real vaqt rejimida foydalanish imkoniyatining yaratilishidir. Natijada korxona rahbariyati va mulkdorlari geografik joylashuvidan qat'i nazar moliyaviy resurslar harakati, soliq majburiyatlari, daromad va xarajatlarning hamda boshqa hisob-kitob operatsiyalari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi.

Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilishi oddiy xodimlar va mutaxassislar uchun ham qator afzalliklarni yaratadi. Xususan, moliyaviy hisobotlar va boshqa axborotlarni tezkor shakllantirish, ma'lumotlarni qayta ishlash muddatlarini qisqartirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Buxgalteriya hisobida axborot tizimlaridan foydalanish quyidagi vazifalarni samarali hal etishga xizmat qiladi:

- moliyaviy mablag'lar harakati to'g'risidagi axborotlarni tezkor shakllantirish va monitoring qilish;
- hisob-fakturalar, yuk xatlari (nakladnoylar), to'lov topshiriqnomalari va boshqa hujjatlarni avtomatik ravishda tayyorlash;
- analitik ma'lumotlarni jadvallar, grafiklar va diagrammalar ko'rinishida shakllantirish hamda taqdim etish;
- buxgalteriya registrlari, hisobvaraqlar va boshqa hisob hujjatlarini yuritishni soddalashtirish;
- qog'oz hujjatlar aylanishini qisqartirish va elektron hujjat aylanishi tizimini rivojlantirish;
- buxgalteriya xizmati va korxonaning boshqa tarkibiy bo'linmalari o'rtasida axborot almashinuvi samaradorligini oshirish;
- davlat organlari bilan elektron hamkorlik va hisobot almashinuvi jarayonlarini soddalashtirish;
- qonunchilikdagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor qabul qilish va amaliyotga joriy etish;
- ish hajmi ortgan taqdirda ham qo'shimcha xodimlarni jalb qilish ehtiyojini kamaytirish.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish nafaqat hisob jarayonlarini optimallashtirish, balki korxonaning moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, axborotlarning ishonchiligi va shaffofligini ta'minlash hamda raqamli



iqtisodiyot talablariga mos boshqaruv tizimini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tabiiyki, buxgalteriya hisobi jarayonlarining qaysi yoʻnalishlarini avtomatlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etishi masalasi yuzaga keladi. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, buxgalteriya hisobining deyarli barcha bosqichlarini avtomatlashtirish korxona faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq avtomatlashtirish darajasi korxona rahbariyatining strategik yondashuvi, moliyaviy imkoniyatlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bogʻliqdir.

Buxgalteriya hisobi tizimida eng avvalo boshlangʻich maʼlumotlarni kiritish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan ushbu bosqichda katta hajmdagi moliyaviy hujjatlar, jumladan, yuk xatlari (nakladnoylar), kvitansiyalar, hisob-fakturalar, toʻlov hujjatlari hamda bank operatsiyalariga oid maʼlumotlar shakllantiriladi va qayta ishlanadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar ushbu hujjatlarni tezkor qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy buxgalteriya dasturlari turli xil hujjatlarni shakllantirish uchun standartlashtirilgan elektron shakllar va andozalarni taklif etadi. Xususan, dalolatnomalar, shartnomalar, hisob-fakturalar, toʻlov topshiriqnomalari va boshqa hujjatlar avtomatik ravishda yaratilishi mumkin. Bu esa hujjatlarni tayyorlash vaqtini qisqartirib, inson omili bilan bogʻliq xatolar ehtimolini kamaytiradi.

Xodimlar bilan bogʻliq hisob jarayonlarini avtomatlashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu yoʻnalishda har bir xodim uchun elektron maʼlumotlar bazasi yoki shaxsiy profil shakllantiriladi, ish vaqtini hisobga olish elektron jurnal asosida yuritiladi hamda ish haqi hisob-kitoblari avtomatlashtiriladi. Bundan tashqari, kasallik varaqalari boʻyicha toʻlovlar, mehnat taʼtili hisob-kitoblari, mukofotlar va boshqa toʻlovlarni aniqlash jarayonlari ham avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar asosida faoliyat olib boradigan kadrlarga boʻlgan ehtiyojni qondirish maqsadida raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha huquqiy meʼyorlar belgilab berilgan [8].

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ish haqi va boshqa toʻlovlarni hisoblash bilan bir qatorda soliq majburiyatlarini aniqlash, tegishli hisobotlarni shakllantirish hamda xodimlarning ishga kelishi va mehnat faoliyati bilan bogʻliq maʼlumotlarni nazorat qilish imkonini beradi. Natijada hisob-kitob jarayonlarining aniqligi va tezkorligi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimlarini avtomatlashtirish asosida mavjud maʼlumotlar bazasidan foydalangan holda soliq hisobotlarini tezkor shakllantirish, moliyaviy koʻrsatkichlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur boʻlgan analitik axborotlarni olish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish zamonaviy korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirish va tezlashtirish imkonini beradi. Mazkur tizimlar elektron shakldagi hujjatlarni yaratish, yuborish, qabul qilish, imzolash, saqlash va arxivlashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Natijada hujjatlarni kelishish va tasdiqlash muddatlari qisqaradi, qogʻoz hujjatlar bilan ishlash hajmi kamayadi hamda maʼmuriy xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, elektron hujjat aylanishi tizimlari qogʻoz hujjatlardan bosqichma-bosqich voz kechish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va yuqori texnologiyalarning keng qoʻllanilishi buxgalteriya hisobining mazmuni, usullari va tashkiliy mexanizmlarida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur oʻzgarishlar, avvalo, axborotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarining innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi maʼlumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, ularning aniqligi va ishonchligini taʼminlash hamda manfaatdor foydalanuvchilarning zarur axborotlarga tezkor kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimi va uning metodologik asoslari soʻnggi yillarda jadal surʼatlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu jarayon, bir tomondan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablarini amaliyotga joriy etish bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, buxgalteriya hisobining turli yoʻnalishlarida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini keng qoʻllash natijasida yuz bermoqda.

Raqamli texnologiyalar buxgalteriya axborotlarining iqtisodiy mazmunini yanada chuqurroq ochib berish, ularni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot sharoitida “raqamli buxgalteriya” tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli buxgalteriya deganda moliyaviy va hisob-kitob jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda dasturiy vositalar yordamida avtomatlashtirishga asoslangan buxgalteriya hisobi tizimi tushuniladi. Mazkur tizim quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi:

hisob-fakturalarni shakllantirish va mijozlarga elektron toʻlov hujjatlarini taqdim etish;

boshlangʻich xoʻjalik operatsiyalarini qayd etish, buxgalteriya provodkalarini shakllantirish hamda buxgalteriya registrlarini yuritish;

soliq va boshqa majburiy toʻlovlarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish;

hamkorlar, mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan elektron axborot almashinuvini tashkil etish;

davlat organlariga moliyaviy va statistik hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish;

moliyaviy maʼlumotlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur analitik axborotlarni shakllantirish.



Shunday qilib, raqamli buxgalteriya tizimlari buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy axborotlarning sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish hamda korxonalarni raqamli transformatsiya sharoitlariga moslashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini raqamlashtirishning asosiy maqsadi moliyaviy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlarining samaradorligini oshirish, shuningdek manfaatdor foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning tezkorligi, shaffofligi va ochiqqligini ta'minlashdan iboratdir. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat yirik korxonalarda, balki kichik va o'rta biznes subyektlarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Biroq bunday tizimlarni joriy etish muayyan moliyaviy resurslarni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda malakali mutaxassislarni talab etadi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishiga qaramasdan, bugungi kunda buxgalteriya hisobi amaliyotini hujjatlashtirish jarayonlarisiz tasavvur etish qiyin. Shunga qaramay, raqamli transformatsiya sharoitida qog'oz hujjatlar ulushi bosqichma-bosqich qisqarib, ularning o'rnini elektron hujjatlar va raqamli axborot tizimlari egallab bormoqda. Davlat tomonidan ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq va moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish, elektron hujjatlarni saqlash hamda almashish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobini to'liq va samarali raqamlashtirish jarayonini elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Elektron hujjat aylanishi tizimi tashkilot ichida va tashkilotlararo axborot almashinuvi jarayonlarini elektron shaklda amalga oshirish imkonini beruvchi kompleks mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizim yordamida hujjatlarni yaratish, qabul qilish, qayta ishlash, tasdiqlash, saqlash, arxivlashtirish va ulardan qayta foydalanish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Elektron hujjat aylanishi tizimlari korxonalar faoliyatining ichki va tashqi axborot oqimlarini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat moliyaviy va buxgalteriya hujjatlarini, balki kadrlar bo'yicha hujjatlar, buyruqlar, farmoyishlar, boshqaruv qarorlari va boshqa tashkiliy hujjatlarni ham elektron shaklda yuritish imkonini beradi. Shu sababli korxonalarda raqamli buxgalteriya tizimiga o'tish jarayonining dastlabki bosqichlaridan biri sifatida ichki elektron hujjat aylanishi tizimini shakllantirish va uni bosqichma-bosqich takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada elektron hujjat aylanishi va raqamli buxgalteriya tizimlarining integratsiyalashuvi hisob ma'lumotlarining ishonchligini oshirish, hujjatlar bilan ishlash xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirish hamda korxonalarning raqamli transformatsiya jarayonlariga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Korxonada ichki elektron hujjat aylanishi tizimi (EHA) samarali joriy etilib, amaliy sinovdan

o'tkazilgandan so'ng tashqi elektron hujjat aylanishi tizimiga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur bosqichda korxonaning hamkorlari, mijozlari, yetkazib beruvchilari hamda davlat organlari bilan elektron shaklda axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

Ta'kidlash joizki, amaliyotda ko'plab korxonalar hamkorlari va mijozlari bilan hujjatlar almashinuvi jarayonida qog'oz hujjatlardan foydalanish uchun sezilarli miqdorda mablag' sarflaydilar. Korxonaning hamkorlari va kontragentlari soni ortib borgani sari qog'oz, kanselyariya mahsulotlari, chop etish xizmatlari va pochta xarajatlari hajmi ham ortib boradi. Shu sababli tashqi elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish hujjatlar almashinuvi bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Natijada korxona xodimlari hujjatlarni tayyorlash, jo'natish, qabul qilish va qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlarga kamroq vaqt sarflab, o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa korxonaga kiruvchi va chiquvchi hujjatlarni boshqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, buxgalteriya hisobi tizimida boshlang'ich hujjatlarni yig'ish, tekshirish va qayta ishlash bilan bog'liq operatsiyalar muntazam ravishda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashni, yuqori darajadagi aniqlik va doimiy nazoratni talab qiladi. Shunga qaramay, inson omili mavjud bo'lgan sharoitda turli xatoliklarning yuzaga kelish ehtimoli saqlanib qoladi.

Aynan shu sababli buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish zarurati yuzaga kelgan. Avtomatlashtirilgan tizimlar inson ishtirokini to'liq bartaraf etmasa-da, uning ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi, ma'lumotlarni qayta ishlash aniqligini oshiradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy yo'qotishlar va jarimalarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar ehtimolini minimallashtiradi.

Shu bilan birga, korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish jarayonida rahbariyat bir qator tashkiliy, texnik va iqtisodiy muammolarga duch kelishi mumkin. Mazkur muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish avtomatlashtirish loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolar va ularning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda deyarli barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, hatto kichik biznes vakillari ham o'z faoliyatida kamida elektron jadvallar va oddiy axborot tizimlaridan foydalanadilar. Shu sababli buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning turli darajalari barcha korxonalar faoliyatida uchraydi. Mazkur jarayon buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish, axborotlarni tezkor qayta ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etishda uchraydigan asosiy muammolar

T/r	Muammolarning ilmiy tavsifi
1	Avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari faoliyat yuritadigan tashkiliy-huquqiy va texnologik muhitning tez o'zgarib borishi dasturiy ta'minotni muntazam ravishda yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.
2	Dasturiy ta'minotni joriy etishda texnik infratuzilmani shakllantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Texnik vositalar joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda tanlanishi lozim.
3	Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining samarali ishlashi uchun buxgalteriya xodimlarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash talab etiladi.
4	Barcha ma'lumotlarni yagona axborot bazasida jamlash korxonaning moliyaviy holatini tezkor tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri boshlang'ich va yig'ma hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini kompyuterlashtirish hisoblanadi. Zamonaviy dasturiy mahsulotlar yordamida boshlang'ich hujjatlarni rasmiylashtirish, to'lov topshiriqnomalarini shakllantirish, bank ko'chirmalarini qayta ishlash, memorial orderlarni yuritish hamda boshqa moliyaviy operatsiyalarni hisobga olish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar harakati, xarid va sotuv daftarlari, hisobvaraqlar bo'yicha aylanma-qoldiq ведомostlari va boshqa buxgalteriya registrlari avtomatik ravishda shakllantiriladi. Natijada buxgalteriya provodkalarini tekshirish, ularni sanalar va operatsiyalar kesimida tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi xodimlarni boshqarish va kadrlar hisobini yuritish bilan bog'liqdir. Zamonaviy axborot tizimlari yordamida xodimlarning elektron kartochkalari shakllantiriladi, ish vaqti hisobi yuritiladi, ish haqi, mukofotlar va boshqa to'lovlar hisoblanadi. Bundan tashqari, mehnat ta'tili, kasallik varaqalari va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshirish va hisob-kitoblarda xatoliklar ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Aksariyat buxgalteriya dasturlari hisob-fakturalar, shartnomalar, dalolatnomalar, yuk xatlari (nakladnoylar) va turli hisobot shakllari uchun tayyor elektron andozalarni taqdim etadi. Foydalanuvchi zarur hujjat turini tanlab, tegishli ma'lumotlarni kiritishi orqali hujjatlarni tez va aniq shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lumotlarni Excel fayllari yoki skanerlangan hujjatlardan import qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bu qo'lda ma'lumot kiritish bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi hamda vaqt tejatlashini ta'minlaydi. Tayyorlangan hujjatlar elektron bazada saqlanadi va avtomatik ravishda hisob tizimiga integratsiyalashadi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri moliyaviy va soliq hisobotlarini shakllantirish hamda ularni tegishli davlat organlariga taqdim etish jarayonlarini raqamlashtirish hisoblanadi. Buxgalter tomonidan tizimga kiritilgan ma'lumotlar asosida moliyaviy, statistik va soliq hisobotlari avtomatik ravishda shakllantiriladi. Shu bilan birga, dasturiy vositalar hisobotlardagi ko'rsatkichlarning o'zaro mosligini nazorat nisbatlari asosida tekshiradi va aniqlangan xatolar to'g'risida

foydalanuvchini ogohlantiradi. Elektron raqamli imzo (ERI) va elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimlaridan foydalanish orqali tayyorlangan hisobotlar tegishli davlat organlariga elektron shaklda yuboriladi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlari hisob jarayonlarini soddalashtirish, moliyaviy axborotlarning aniqligi va ishonchligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini yuksaltirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Hisobotlarni elektron shaklda shakllantirish va internet tarmoqlari orqali uzatish imkoniyati buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarining amaldagi qonunchilik talablariga mosligini mustaqil ravishda nazorat qilib boradi hamda ularni foydalanuvchi ishtirokisiz avtomatik yangilash imkoniyatiga ega.

Elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimi buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizim yordamida turli hujjatlarni elektron shaklda internet orqali yuborish, qabul qilish, tasdiqlash va saqlash imkoniyati yaratiladi. An'anaviy qog'oz hujjatlar bilan ishlash jarayonida hujjatlarni mas'ul shaxslar bilan kelishish va imzolash ko'p vaqt hamda mehnat talab qiladi. Elektron hujjat aylanishi tizimi esa hujjatlarni qisqa muddatlarda elektron raqamli imzo yordamida tasdiqlash, manfaatdor tomonlar bilan tezkor axborot almashish va hujjatlarni ishonchli saqlash imkonini beradi. Natijada hujjatlarning yo'qolishi yoki shikastlanishi bilan bog'liq xavflar deyarli bartaraf etiladi.

Elektron hujjat aylanishi tizimlari shartnomalar va loyihalarni boshqarish, korxona bo'linmalari o'rtasidagi ichki hujjatlar harakatini optimallashtirish, hujjatlarni saqlash va tizimlashtirish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois EHA tizimlari korxonalarda hujjatlar bilan ishlash samaradorligini oshirishning zamonaviy vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish kontragentlar bilan ishlash samaradorligini ham oshiradi. Xususan, hamkorlar, mijozlar va yetkazib beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor tekshirish, ularning moliyaviy holatini baholash hamda potensial xavflarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish, soliq organlari bilan



bog'liq muammolarning oldini olish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlarni bank axborot tizimlari bilan integratsiyalash korxonalarning moliyaviy operatsiyalarini boshqarishni sezilarli darajada soddalashtiradi. Bunda bank ma'lumotlari muntazam ravishda buxgalteriya tizimiga yuklanib boradi va moliyaviy axborotlar real vaqt rejimiga yaqin holatda yangilanadi. Avtomatlashtirilgan tizimda shakllantirilgan to'lov topshiriqnomalari elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda to'g'ridan-to'g'ri banklarga yuborilishi mumkin. Bu esa ish vaqtini tejash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich – korxona ehtiyojlarini tahlil qilish. Avtomatlashtirishni joriy etishdan oldin mavjud hujjat aylanishi tizimi, ichki reglamentlar, yo'riqnomalar va ish jarayonlarini batafsil o'rganish lozim. Shuningdek, qaysi bo'linmalarining yagona ma'lumotlar bazasida ishlashi, qaysi bo'linmalarining mustaqil faoliyat yuritishi hamda lokal yoki tarmoq rejimida ishlash ehtiyoji mavjudligi aniqlanishi zarur.

Ikkinchi bosqich – vazifalarni aniq belgilash. Avtomatlashtirish jarayonida bajariladigan ishlar, mas'ul ijrochilar, muddatlar va kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinishi lozim. Shu asosda korxona ehtiyojlariga mos texnik vositalar va dasturiy mahsulotlar tanlanadi.

Dasturiy ta'minotni tanlashda uning korxona byudjetiga mosligi, amaldagi operatsion tizimlar bilan integratsiyalashuvi, texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarining mavjudligi, texnik talablari hamda lokal yoki tarmoq versiyalarining imkoniyatlari inobatga olinishi zarur.

Uchinchi bosqich – xodimlarni o'qitish va tayyorlash. Har qanday avtomatlashtirilgan tizim samarali ishlashi uchun undan foydalanuvchi xodimlarning zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Shu sababli yangi tizimni joriy etish jarayonida mutaxassislarni o'qitish, ularga amaliy ko'nikmalar berish va metodik yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dasturiy mahsulotni ishlab chiquvchi mutaxassislar tomonidan treninglar o'tkazilishi tizimning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqich – sinov va takomillashtirish jarayonlarini amalga oshirish. Dasturiy ta'minot joriy etilgandan so'ng ma'lum muddat sinov rejimida foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu davr mobaynida foydalanuvchilar tizimning afzallik va kamchiliklarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Sinov natijalariga ko'ra dasturiy ta'minotni takomillashtirish, qo'shimcha modullarni joriy etish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va texnik vositalarni modernizatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy axborotlarning ishonchligini ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda raqamli

iqtisodiyot talablariga mos faoliyat yuritishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tizim yakuniy sinovlardan muvaffaqiyatli o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng uni to'liq ekspluatatsiyaga joriy etish mumkin bo'ladi. Shundan keyin korxona faoliyatida yangi texnologik yondashuvlar asosida ishlash hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlaridan samarali foydalanish bosqichi boshlanadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya qilish faqatgina o'zaro bog'liq bosqichlarning izchil amalga oshirilishi natijasida kutilgan samarani beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi muhim yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- tashkilotdagi buxgalteriya hisobi tizimining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va avtomatlashtirilishi lozim bo'lgan jarayonlarni aniqlash;

- korxona faoliyati va ehtiyojlariga mos keluvchi dasturiy ta'minotni tanlash;

- dasturiy mahsulotni joriy etishdan oldin uning funksional imkoniyatlarini real ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish;

- mavjud ma'lumotlar bazasini yangi tizimga migratsiya qilish hamda barcha zarur axborotlarni yagona platformaga integratsiyalash;

- xodimlarni avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishlash bo'yicha o'qitish va zamonaviy avtomatlashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etish;

- axborot texnologiyalari mutaxassislari tomonidan doimiy texnik va uslubiy qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish.

Tashkilotlarda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish jarayonlari raqamli iqtisodiyotning umumiy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda uzluksiz takomillashib boradi. Shu munosabat bilan korxonalarda raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish uchun quyidagi strategik vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlariga erishish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlarini tezlashtirish va foyda hajmini ko'paytirishga e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, qo'shimcha qiymat yaratmaydigan va mahsulot tannarxining ortishiga olib keladigan ortiqcha xarajatlarni aniqlash hamda ularni qisqartirish choralari ko'rish lozim.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya uchun mavjud resurslarni kompleks baholash talab etiladi. Bunda moliyaviy mablag'lar, kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot, xodimlarning malakasi, vaqt resurslari va texnik servis xizmatlari imkoniyatlari tahlil qilinishi zarur.

Uchinchidan, raqamlashtirish loyihasining tarkibi, amalga oshirish bosqichlari, moliyalashtirish manbalari va xarajatlar hajmini aniqlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda mas'ul ijrochilarni tayinlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, loyiha doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnologik, moliyaviy va tashkiliy xavflarni baholash ham zarur hisoblanadi.



To'rtinchidan, raqamli transformatsiya natijasida hujjatlar aylanishi tartibi va muddatlarini qayta ko'rib chiqish, elektron operatsiyalar va to'lovlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, buxgalteriya hisobi usullari hamda hisob siyosatiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiya qisqa muddatda amalga oshiriladigan jarayon emas. Uni muvaffaqiyatli joriy etish muayyan vaqt, moliyaviy resurslar va tashkiliy sa'y-harakatlarni talab qiladi. Tanlangan raqamlashtirish strategiyasiga muvofiq ravishda zamonaviy dasturiy vositalar va axborot tizimlari tanlanadi, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida trening va seminarlar tashkil etiladi. Zarur hollarda malakali mutaxassislar yoki konsalting kompaniyalari jalb etilib, raqamli buxgalteriya hisobi tizimlarini yuritish bo'yicha metodik va amaliy yordam ko'rsatiladi.

Natijada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya qilish korxonalarning boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy axborotlarning ishonchligini ta'minlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga mos faoliyat yuritishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya qilish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish iqtisodiy munosabatlar rivojining obyektiv va muqarrar bosqichiga aylanib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini o'z vaqtida va tizimli ravishda joriy etish moliyaviy axborotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash hamda mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish jarayonini erta bosqichlarda boshlash korxonalarning texnologik moslashuvchanligini kuchaytirib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashkiliy va texnik muammolarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Aniqlanishicha, raqamli transformatsiya natijasida qog'oz hujjatlar aylanishidan elektron hujjat aylanishi tizimlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni jadallashadi. Bu esa hujjatlar bilan ishlash xarajatlarini qisqartirish, axborot almashinuvi tezligini oshirish, hujjatlarning saqlanish ishonchligini ta'minlash hamda korxona faoliyatining shaffofligini kuchaytirishga imkon yaratadi. Shuningdek, elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot davomida buxgalteriya hisobini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari sifatida operatsion xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, moliyaviy axborotlarni tezkor qayta ishlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash

hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash kabi omillar aniqlandi. Mazkur afzalliklar korxonaning mulkchilik shakli va tashkiliy-huquqiy maqomidan qat'i nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun davlat tomonidan axborot texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, korxonalarni zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishga rag'batlantirish, malakali IT va buxgalteriya mutaxassislarini tayyorlash hamda elektron hujjat aylanishi infratuzilmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Natijada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya qilish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Annor, A. S. (2020). Impact of Digitalization and Automation of Financial Reporting. *International Journal of Accounting, Finance, and Investment Strategies*, 1(2), 1–18. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18413111>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni.
3. Chiu, V., Liu, Q., Muehlmann, B., & Baldwin, A. A. (2019). A bibliometric analysis of accounting information systems journals and their emerging technologies contributions. *International Journal of Accounting Information Systems*, 32, 24–43.
4. Mahmudov S.Q., Yo'ldoshev R.Sh.. Banklarda buxgalteriya hisobi: o'quv qo'llanma. –T.: 2017. – 398 b.
5. Rahimova L. “Soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish muammolari”. “Raqamli iqtisodiyot” jurnali, 2 (5) 2020-yil, - B. 89-97.
6. Sampaio, C., & Silva, R. (2025). Digital Transformation in Accounting: An Assessment of Automation and AI Integration. *International Journal of Financial Studies*, 13(4), 206. <https://doi.org/10.3390/ijfs13040206>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.07.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i, ro'yxat raqami 3538.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.02.2024 yildagi “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-51-son qarori.



Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xushmuradov Oman Qarshi davlat texnika universiteti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professor v.b., i.f.n. / Хушмурадов Оман Каршинский государственный технический университет, и.о.

профессор кафедры «Бухгалтерский учет и аудит», к.э.н. / Xushmuradov Oman Karshi state technical university, acting professor of the department of “Accounting and audit, PhD in economics

E-mail: o.xushmuradov@gmail.com

ORCID: 0009-0000-4214-5804



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz